XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-08, www.jarqorgon.uz

2022 - yil 26 - sentabr VI-45-138-8-112-K/22 Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

Jarqo‘rg‘on tumanidagi mavjud ayrim geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qaroriga muvofiq Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 09-iyundagi 15-01/46-sonli va Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 24-iyundagi 18-01/169-sonli yig‘ilish bayonlari hamda Respublika Kadastr agentligining “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi 2022-yil 26-iyuldagi 08-06349-sonli ekspert xulosasini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining tumandagi ayrim Geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyaga bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 24-iyundagi 18-01/169-sonli yig‘ilish bayoni hamda Respublika Kadastr agentligining “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi 2022-yil 26-iyuldagi 08-06349-sonli ekspert xulosasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tumandagi ayrim Geografik obyektlarni nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Arxitektura va qurilish bo‘limi (S.Xaitov), Kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasining Jarqo‘rg‘on tuman filiali (Sh.Muradqulov)lar birgalikda o‘zgartirish kiritilayotgan ayrim geografik obyektlar nomlarining kartografiya va ma’lumotnoma nashrlarini tayyorlasinlar hamda chegaralarini aniqlab, 2022-yil 1-noyabrga qadar Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasiga taqdim etsin.

5.Tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (G‘.Xo‘janov) va tuman Ichki ishlar bo‘limi (Sh.Allamuratov) tegishli mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda ayrim geografik obyekt nomi tasdiqlanganligi, nomlanganligi sababli fuqarolarning fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarining tashkiliy ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi yuzasidan ta’sirchan chora-tadbirlarni belgilasin.

6. Tuman Statistika bo‘limi (E.Xushboqov) Jarqo‘rg‘on tumani hududida nomlari tasdiqlangan, nomlangan ayrim geografik obyektlarni inobatga olgan holda statistik ma’lumotlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritsin.

7. Jarqo‘rg‘on tumani Moliya bo‘limi (A.Abdusalamov), tuman Obodonlashtirish bo‘limi (Ch.Samanov)ga nomlari tasdiqlangan, nomlangan ayrim geografik obyektlar nomlarini yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich, belgilar, peshlavhalarning bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin, shuningdek, obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etsin.

Belgilansinki harajatlar mahalliy budjet, homiylik hamda qonunchilikda ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan belgilangan tartibda moliyalashtiriladi.

8. Belgilab qo‘yilsinki, tasdiqlangan geografik obyektlar nomlari tuman hududida to‘g‘ri va to‘liq yuritilishi shart.

9. Tuman hokimligi axborot xizmati (B.Jumaev), “Jarqo‘rg‘on” gazetasi tahririyati (A.Poyonov)ga nomlari tasdiqlangan, nomlangan ayrim geografik obyektlar to‘g‘risida ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarga yoritish tavsiya etilsin.

10. Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida ayrim geografik obyektlar nomlari Respublika Kadastr agentligining davlat reyestriga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

11. Ushbu sessiya qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (K.Raxmatova) zimmasiga yuklansin.

12. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Jarqo‘rg‘on tuman hokimi **B.A.O'raqov**

Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2022 yil 26 sentabrdagi
VI-45-138-8-112-K/22-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Respublika Kadastr agentligi tomonidan ekspert xulosasi berilgan Jarqo‘rg‘on tumanidagi mavjud geografik obyektlarning ro‘yxati

TT/r	Geografik Obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Ardoqli	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Ahilobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Barqaror	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Bahodirlar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Birodarlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Iste’dod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Ishbilarmon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Qahramon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Qadimchinor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Mutafakkir	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Navqiron	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Oliyhimmat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Orom	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
14.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Sayilgoh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
15.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	So‘limdala	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16.	Ko‘cha	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Tinchliksevar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.